



## OILA VA IJTIMOY HIMOYA TIZIMINING O'ZBEKISTONDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Quramboyev Alisher Maxsudovich

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti

E-mail: quramboyevalisher@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15206691>

### ARTICLE INFO

Received: 31th March 2025

Accepted: 10<sup>th</sup> April 2025

Published: 13 th April 2025

### KEYWORDS

*oila, ijtimoiy himoya, ijtimoiy siyosat, Temir daftar, Ijtimoiy himoya yagona reyestri, mahalla bankirlari, ijtimoiy shartnoma, kambag'allik, davlat islohotlari, iqtisodiy barqarorlik.*

### ABSTRACT

*Ushbu tezisda O'zbekistonda oila va ijtimoiy himoya tizimi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik tahlil qilingan. Mustaqillik yillaridan boshlab amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat va islohotlar, jumladan, “Temir daftar”, “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”, “Mahalla bankirlari” instituti va “Ijtimoiy shartnoma” mexanizmlarining ahamiyati yoritilgan. Tezisda, shuningdek, oilani qo'llab-quvvatlash va aholining kambag'allikdan chiqarilishida zamonaviy yondashuvlarning roli ko'rib chiqilgan. Oila va ijtimoiy himoya tizimi orqali jamiyat barqarorligi va iqtisodiy farovonlikka erishish masalasi asosiy e'tiborga olingan.*

**Kirish.** Oila insoniyat tarixida jamiyatning eng muhim bo'g'ini hisoblanadi. U qadimdan ma'naviyat va tarbiyaning boshlang'ich maskani sifatida e'tirof etilgan. Oila jamiyatning tabiiy va demokratik hujayrasi bo'lib, unda inson nafaqat dunyoga keladi, balki ma'naviy va axloqiy kamol topadi. Mahalla tizimi orqali esa oila jamoaviylik tuyg'usini shakllantiradi va mahalla ijtimoiy munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois oila jamiyat barqarorligining poydevoridir. Oila va jamiyat o'rtasidagi bu uzviy bog'liqlik davlatning ijtimoiy siyosatida ham muhim o'rin egallaydi. Davlat oilani qo'llab-quvvatlash va himoya qilish orqali jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Bugungi kunda oila ijtimoiy himoyasining samaradorligini oshirish, uning barqarorligini mustahkamlash va farovonligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

**Asosiy qism.** Bugungi kunda O'zbekiston ijtimoiy siyosatida oilaning o'rne va ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oila nafaqat jamiyatning tabiiy bo'g'ini, balki ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning asosiy omillaridan biri sifatida davlat siyosatining markazida turibdi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 76-moddasida oilaning jamiyat va davlat muhofazasida ekani aniq belgilandi [1]. Bu me'yor oilaning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini yuksak baholaydi va boshqa huquqiy hujjatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

2020 yildan boshlab “Temir daftar” va “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” tizimlari orqali kam ta'minlangan oilalarga yordam ko'rsatishning manzilligi va shaffofligi oshirildi. “Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini elektron axborot tizimlari orqali qo'llab-quvvatlash, yagona bazada qamrab olish tadbirlari dunyoning 30 dan ortiq mamlakatlari, jumladan Argentina, Braziliya, Rossiya, Armaniston, Ozarbayjon, Turkiya, Malayziya, Indoneziya, Pokiston kabi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda turli xil ko'rinish va mexanizmlar orqali amalga

oshirilmoqda”[2]. Ushbu tizim orqali elektron shaklda ehtiyojmand oilalar aniqlanib, ularning daromad va sharoitlari baholanyapti. Shu tariqa, nafaqat moddiy yordam, balki ijtimoiy xizmatlarning samaradorligi ham oshirildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2023 yildan boshlab mahalla va bank tizimlari o’rtasida hamkorlik kuchaytirildi. “Mahalla bankirlari” instituti joriy qilinib, aholining bandligini ta’minlash va ularni daromadli mehnatga jalb etish bo’yicha tizimli ishlar boshlandi [2]. Bu orqali kichik va o’rta biznesni qo’llab-quvvatlash va kambag’allikni qisqartirishda ijobiy natijalarga erishilyapti.

2025 yildan boshlab “Ijtimoiy shartnoma” mexanizmi joriy etilib, ijtimoiy yordam va xizmatlar mehnatga layoqatli a’zolarning bandligi, ta’lim va kasb-hunarga jalb etilishi kabi shartlar asosida ko’rsatilmoqda. Shartlar bajarilmaganda, nafaqalar va yordam miqdori qisqartirilishi belgilandi. Bunda mahalla organlarining ham faol ishtiroki ta’minlanmoqda [3]. “Ijtimoiy shartnoma” tizimi quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- Kam ta’minlangan oilalarning o’z daromad manbalarini yaratishga rag’batlantiradi;
- Mehnatga layoqatli a’zolari bandlikka jalb qilish orqali ularning mustaqilligini oshiradi;
- Ijtimoiy yordamlarning shaffofligi va manzilligini ta’minlaydi;
- Mahalla organlari ishtirokini kuchaytirib, mahalliy muammolarni joyida hal qilish imkonini yaratadi;
- Ijtimoiy yordam tizimidan qaramlikni kamaytirib, oilalarning iqtisodiy barqarorligini oshiradi.

**Xulosa.** O’zbekistonda mustaqillik yillaridan boshlab amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning markazida oila va inson qadri turadi. Mamlakatda olib borilayotgan islohotlar, jumladan, “Temir daftar”, “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”, “Mahalla bankirlari” instituti va “Ijtimoiy shartnoma” kabi mexanizmlar orqali oilalarning iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Oila va jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida davlat tomonidan oilalarni qo’llab-quvvatlash va ularning farovonligini oshirish bo’yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Oila va ijtimoiy himoya tizimining uzviy bog’liqligini ta’kidlab aytish mumkinki, bu tizimning rivojlanishi jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo’lib qolmoqda. Kelgusida ham ijtimoiy himoyaning zamonaviy va adolatli shakllarini kengaytirish orqali kambag’allikni qisqartirish va oilaviy farovonlikni oshirishga qaratilgan islohotlar davom ettirilishi zarur.

#### Adabiyotlar.

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. [Matn] Rasmiy nashr. – Toshkent: “O’zbekiston” nashriyoti, 2023. – 28-29 betlar. – ISBN 978-9943-9506-0-3.
2. Aliyev M. K. “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimining aholini ijtimoiy himoya qilishdagi o’rni // *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*. – 2023. – №11-12. – B. 984-986. – ISSN 2992-8982.
3. Yangi O’zbekiston: Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari // *Yangi O’zbekiston ijtimoiy-siyosiy gazetasi*. – 2025. – 5-mart. – №45 (1371). – B. 1-4. – ISSN: yo’q. – URL: [www.yuz.uz](http://www.yuz.uz).
4. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oilalarni kambag’allikdan chiqarishga qaratilgan ko’mak choralarini ko’rsatishga doir tartib-taomillarni

takomillashtirish to'g'risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori,  
27.02.2025 yildagi 125-son <https://lex.uz/ru/docs/-7410357>



INNOVATIVE  
ACADEMY